

№ 109
10.03.2022 yil

Komissiya tuzish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-mayda №3016 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari bajarilishini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Universitet ehtiyoji uchun tovar-moddiy boyliklar sotib olish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha berilgan e'lonlar uchun taqdim qilinadigan tijorat takliflarini ko'rib chiqish va maqbulini tanlab olish uchun quyidagi mas'ul xodimlar ishtirokida Xarid komissiyasi tuzilsin:

Xarid komissiyasi raisi: A.Asraqulov -moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor v.v.b.

A'zolari:

U.Karabayev – bosh hisobchi o'rinbosari.

U.G'ulomov – reja-moliya bo'limi boshlig'i.

A.So'fiyev - huquqshunos.

Yo.Artikov- bosh muhandis.

M.Madg'oziyev - texnik-foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i.

B.Sharopov - muhandis

Xarid komissiyasi kotibi: Sh.Rahmonaliyev – davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassis (ovoz berish huquqiga ega emas).

2. Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali xarid.uzex.uz internet manziliga universitetga yetkazib beriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatini kiritib borish, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun zakalat va vositachilik to'lovlarini to'lash, tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzish va ular ijrosini o'z vaqtida ta'minlash uchun davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassis Sh.Rahmonaliyev mas'ul etib tayinlansin.

3. Komissiya raisi (A.Asraqulov)ga Xarid komissiyasi faoliyati davomida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turiga qarab komissiya tarkibiga qo'shimcha mutaxassislar jalb qilishga ruxsat berilsin.

4. Xarid komissiyasi raisi va a'zolarining xizmat lavozimi o'zgarganda lavozimni yangi egallagan mas'ul shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.

5. Ushbu buyruq bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-mayda №3016 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Rektor

B.Shermuhammadov

